

**TYUTORLIK FAOLIYATINI TASHKILYIY METODIK JIHATDAN
SHAKLLANTIRISHNI PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Qurbonov Feruz Yaxshimurodovich

*Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali “KI” fakulteti tyutori
yaxshimurodovich@inbox.ru*

*Shapayeva Gulshoda Tolib qizi
Muxammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali “KI” fakulteti
1-bosqich talabasi
shapayevagulshoda@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari, tyutorlik faoliyatining tashkiliy, huquqiy va metodik jihatdan shakllantirishning asosiy mazmuni yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: tyutorlik faoliyati, uning maqsad va vazifalari, mazmuni, tyutorning huquqlari.

XXI asrda jahon miqyosida taʼlim barqaror taraqqiyotni taʼminlovchi asosiy omil sifatida eʼtirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro taʼlim konsepsiyasida “... barcha uchun butun hayot davomida sifatli taʼlim olishga imkoniyat yaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu uzluksiz taʼlim tizimini, jumladan, masofaviy oʻqitish tizimini rivojlantirish va unda tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Bugungi kunda uzluksiz taʼlim tizimida oʻqituvchilarning vazifalarini qayta koʻrib chiqishni taqozo etmoqda. Sababi, jahon tajribalaridan koʻrish mumkin, masofaviy oʻqitish tizimida asosan tyutorlik faoliyati tashkil etilishi yuzasidan oʻqituvchilarning faoliyatini tyutorlik yordam koʻrsatish faoliyatiga oʻtkazish masalasining oʻziga xos xususiyatlarini koʻrib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Davlat oliy taʼlim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi” Nizom Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim jarayonini tashkil etish bilan bogʻliq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 31-dekabrda 824-son hamda “Respublika oliy taʼlim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2021-yil 9-

sentabrda 563-son qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish tartibi va yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Bizning fikrimizcha, tyutorlik faoliyati o‘ta mas‘uliyatli va o‘z vaqtida sharaflilik kasbiy faoliyat sohasi hisoblanadi. Tyutorlar ta‘lim faoliyatning barcha sohalarida talabalar faoliyatiga shaxsan mas‘ul va javobgardir. Javobgarlik darajasi va uning to‘liq anglanishi uning kasbiy faoliyatining zaruriy shartlaridan hisoblanadi. Tyutor o‘z shaxsiy amaliyotini takomillashtirsa, hech bo‘lmaganda uni anglash uchun atayin tirishib harakat qilsagina haqiqiy mutaxassisga aylanadi.

➤ Tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- ta‘lim va tarbiya jarayoni uyg‘unligini samarali tashkil etish;
- ta‘lim muassasasi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- talabalarga ijtimoiy-ma‘naviy va psixologik yordam ko‘rsatgan holda o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish;

- ta‘lim muassasalaridagi ta‘lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o‘quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog‘liq masalalarda jamoat kengashi va mahallaning o‘rnini kuchaytirish.

- talabalarning dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarini ta‘minlash; - ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo‘lishdan iborat[3; 2].

Tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirish jarayonida tyutorning kasbiy qobiliyatlari va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlari rivojlantiriladi.

➤ Tyutorlar quyidagi huquqlarga ega:

- o‘ziga biriktirilgan talabalarning darslarini, talaba davomati va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish;

- TTJga joylashishlari uchun talabalarga e‘lon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlarni yig‘ib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yig‘ilishida talabalarning ishtirokini ta‘minlash;

- talabaning talabalar turar joyidan chiqarilishiga rozilik berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritish;

- o‘quv-tarbiyaviy sohalaridagi muammolarini bartaraf etish bo‘yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash;

- madaniy-ma‘rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o‘tkazishda dekanat, rektorat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

- talabaga tavsifnoma va akademik ta‘til berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma‘lumotlardan to‘la foydalanish;

- talabaning darslariga qatnashishi, o‘zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning rag‘batlantirilishi yoki jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo‘yicha xulosa berish;

- yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, kasaba uyushmasi va ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bilan birgalikda talaba bilimni odilona baholashni nazorat qilish;

- tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirish amaliyotida tajriba orttirish, ularning shaxsida kasbiy yo‘nalishlarning shakllantirilishi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirishning asosiy mazmuni tyutorlarning kasbiy pedagogik faoliyatini tashkil qiladi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabani o‘rganish, uning qobiliyat va qiziqishlarini, muloqot va faoliyat motivlarini o‘rganish hamda uning individual rivojlanishini loyihalashtirish;

- guruhlarda xayotiy faoliyatni va muloqot jarayonini tashkil qilish, ularda har bir talabalarning bilim olishi uchun qulay sharoitlarni yaratish;

- talabalarning individual va jamoaviy o‘quv-bilish, ijtimoiy-siyosiy, mehnat, badiiy, sport va boshqa faoliyatlarini tashkil qilish;

- pedagogik tajribani o‘rganish, tahlil qilish, talabalarning shaxsiy, umumiy, pedagogik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish[5;73].

Tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishning zarurati ta‘lim muassasalarida tyutor-o‘qituvchilar uchun tashkil etiladigan turli tadbirlar, konferensiyalar, pedagogik-psixologik trening, vebinarlarda tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirish texnologiyalari bo‘yicha ma‘ruzalar tashkil etilishini muvofiqlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Tyutorlik faoliyatini tashkiliy metodik jihatdan shakllantirish kasbiy-ijodiy faoliyatga jalb etish bosqichma-bosqich ravishda amalga oshiriladi. Uning birinchi bosqichida turli xildagi seminar, vebinar mashg‘ulotlarida ta‘lim-tarbiya mazmunini bayon etish; ikkinchi bosqichda ta‘lim-tarbiya mazmunini asosida belgilangan muammoni xal etish yuzasidan ishlash, izlanish, ta‘lim–tarbiya jarayonini modellashtirish va maqbul variantini tanlash; uchinchi bosqichda esa birinchi va ikkinchi bosqichlarda to‘plagan tajribalar asosida faoliyatga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF 5847-son Farmoni// lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrda 824-son Farmon// lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 563-sonli qarori, Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi “Namunaviy nizom”. 10.09.2021. Farmon//lex.uz.
4. Ibragimovna, T. I. (2023). Preparing Future Educators for the Formation of Life Skills in Students. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 170-173.
5. Muhammadovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 144-149.
6. Mukhammadovna, U. N. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR’S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 4(03), 58-64.
7. O‘rinova, N. M. (2023). BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 301-307.